

KONSTITUTSIYAVIY SUDGA FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI: TARIXIY RIVOJLANISH, NAZARIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Abdunazarova Maxliyo Raximovna

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998976448900

abdunazarovamaxliyo04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15531488>

Annotatsiya. Ushbu maqola konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi, ilmiy-nazariy asoslari, metodologiyasi, muammolari va takliflarini tahlil qiladi. Maqolada konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining zamonaviy konstitutsiyaviy huquqdagi o'rnini, uning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Tadqiqotda tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, nazariy-huquqiy va statistik-huquqiy metodlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy sudga murojaat, konstitutsiyaviy sud, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, demokratiya, huquqiy davlat.

Kirish

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u fuqarolar va yuridik shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali vositasidir. Ushbu maqola konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi, ilmiy-nazariy asoslari, metodologiyasi, muammolari va takliflarini tahlil qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

- Tarixiy-huquqiy metod: Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining kelib chiqishi va rivojlanish tarixini o'rganish.
- Qiyosiy-huquqiy metod: Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutlarini qiyosiy tahlil qilish.
- Nazariy-huquqiy metod: Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish.
- Statistik-huquqiy metod: Konstitutsiyaviy sudlarning faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.

Natijalar va muhokama

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining kelib chiqishi. Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining ilk ildizlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Avstriya va Germaniyada paydo bo'lgan. Bu davlatlarda fuqarolar va yuridik shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish zarurati tufayli konstitutsiyaviy nazorat mexanizmlari shakllana boshladi.

Gans Kelzen: "Konstitutsiyaviy sud fuqarolar va yuridik shaxslarning asosiy huquqlarini himoya qiluvchi eng oliy sud bo'lishi kerak"¹. Kelzenning "Sof huquqiy ta'limot" asarida konstitutsiyaviy sudning huquqiy davlatdagi roli batafsil tahlil qilingan. U konstitutsiyaviy sudni "negativ qonun chiqaruvchi" sifatida tasvirlaydi, chunki u konstitutsiyaga zid bo'lgan qonunlarni

¹ Kelzen, G. (1928). "Avstriya Konstitutsiyasi"

bekor qilish vakolatiga ega.

Karl Shmitt: “Konstitutsiyaviy sud siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi”². Shmittning “Konstitutsiyaviy huquq ta’limoti” asari konstitutsiyaviy sudning siyosiy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shmitt konstitutsiyaviy sudni “konstitutsiya himoyachisi” sifatida ko‘radi, chunki u konstitutsiyani siyosiy ta’sirlardan himoya qiladi.

Robert Aleksey: “Konstitutsiyaviy sud inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa huquqiy davlatning ajralmas qismidir”³.

Dyordy Ulman: “Konstitutsiyaviy sud, demokratiya va qonun ustuvorligini kafolatlash uchun muhim institutdir”⁴

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, Kelzen konstitutsiyaviy sudning huquqiy jihatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Shmitt esa uning siyosiy jihatlariga urg‘u beradi. Kelzen konstitutsiyaviy sudni “negativ qonun chiqaruvchi” sifatida ko‘rsa, Shmitt uni “konstitutsiya himoyachisi” sifatida ko‘radi. Shunga qaramasdan, ikkala olim ham konstitutsiyaviy sudning fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilishdagi muhim rolini tan oladi. Robert Aleksey va Dyordy Ulmanlar esa, konstitutsiyaviy sudni inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim kafolati deb hisoblaydi.

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining rivojlanish tarixi

XX asrning birinchi yarmida Birinchi jahon urushidan keyin ba’zi Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Avstriyada konstitutsiyaviy sudlar tashkil etildi va ular fuqarolar va yuridik shaxslarning individual murojaatlarini ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin inson huquqlari va qonun ustuvorligi g‘oyalari keng tarqalgach, konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham joriy etildi.

Ispaniya: 1978-yilgi Konstitutsiya bilan birgalikda, Ispaniya Konstitutsiyaviy sudi fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish uchun muhim institutga aylandi. Ispaniya konstitutsiyasining 161.1.b moddasiga ko‘ra, Konstitutsiyaviy sud fuqarolar va yuridik shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini buzuvchi qonunlarga qarshi murojaatlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega⁵.

Fransiya: 2008-yildagi konstitutsiyaviy islohotdan song ustuvor konstitutsiyaviy savol(QPC) mexanizmi joriy etildi. Ushbu mexanizm fuqarolar va yuridik shaxslarga o‘z huquqlarini himoya qilishning samarali vositasini taqdim etadi. Fransiyaning Konstitutsiyaviy qonunining 61-1 moddasiga binoan, har bir sud jarayonida, agar qonun konstitutsiyaga zid deb hisoblansa, shu savol konstitutsiyaviy kengashga yuborilishi mumkin⁶.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida demokratik o‘tish jarayonida ko‘plab postsovet mamlakatlarida, jumladan, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston va boshqa davlatlarda konstitutsiyaviy sudlar tashkil etildi va ular fuqarolar va yuridik shaxslarning individual murojaatlarini ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda ham konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti yaqinda joriy etildi. 2023-yilgi yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz asosida fuqarolar va

² Shmitt, K. (1931). “Konstitutsiyaviy huquq ta’limoti”

³ Aleksey, R. (2002) “Huquq nazariyasi”

⁴ Ulman, D. (1998) “Konstitutsiyaviy huquq asoslari”

⁵ Ispaniya Konstitutsiyasi

⁶ Fransiya Konstitutsiyaviy Kengashi

yuridik shaxslarga konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi berildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 55-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining qonunga xilof harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi ⁷ kafolatlangan bo'lsa, 133-moddasida Konstitutsiyaviy sudning vakolatlariga, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudga ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli⁸ ekanligi belgilandi. Bu norma "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni ⁹ bilan ham mustahkamlandi.

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining ilmiy-nazariy asoslari quyidagilar:

-Konstitutsiyaviy ustuvorlik prinsipi: Konstitutsiya davlatning oliy qonuni bo'lib, barcha boshqa qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar unga muvofiq bo'lishi kerak.

-Inson huquqlari prinsipi: Har bir insonning asosiy huquq va erkinliklari mavjud bo'lib, ular davlat tomonidan himoya qilinishi kerak.

-Qonun ustuvorligi prinsipi: Barcha davlat organlari va fuqarolar qonunga bo'ysunishi kerak.

-Demokratiya prinsipi: Davlat hokimiyati xalqqa tegishli bo'lib, u o'z vakillari orqali amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining muammolari

Bugungi kunda Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining samaradorligi ko'plab omillarga, jumladan, konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi, uning resurslari va shikoyat predmeti, jamiyatning huquqiy madaniyatiga bog'liq. Ba'zi mamlakatlarda bu institut Konstitutsiyaviy sudlarning siyosiy ta'sirga beriluvchanligi, murojaatlarni ko'rib chiqishning uzoq davom etishi, fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlari haqida xabardorligining pastligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Xususan, O'zbekistonda fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishlaridagi asosiy muammo, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudga ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan boshqa normativ hujjatlar emas, faqatgina qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli ekanligi bilan bog'liq deb hisoblaymiz. Bu holat Konstitutsiyamizning 55-moddasi talablariga zid keladi hamda fuqaro va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sud orqali buzilgan huquqlarini tiklashni cheklab qo'yadi.

Takliflar

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun moddaga tegishli qo'shimcha va o'zgartirish kiritilishi zarurati mavjud deb o'ylaymiz. Ilg

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55- modda. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son), <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 133-moddasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son), <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun 27-moddasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. <https://lex.uz/acts/-5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101>

‘or xorijiy tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, **Germaniya Konstitutsiyasining** 94-moddaning 4a-qismida asosiy huquqlaridan biri yoki huquqlaridan biri davlat organi tomonidan buzilganligi to‘g‘risida har qanday shaxs tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy shikoyatlar berishi mumkinligi belgilab o‘tilgan¹⁰. **Germaniyaning Federal Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonunning** (Bundesverfassungsgerichtsgesetz – BVerfGG) 92-moddasida, shikoyatchi o‘z huquqlari buzilganlini talab qilgan organ yoki organning xatti-harakati yoki harakatsizligi ustidan konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Polsha Konstitutsiyasining 79-moddada Konstitutsiyaviy erkinliklari yoki huquqlari poymol etilgan har bir shaxs qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra o‘zining erkinliklari yoki huquqlari yoki Konstitutsiyada belgilangan majburiyatlari to‘g‘risida sud yoki davlat boshqaruvi organi tomonidan yakuniy qaror qabul qilgan **qonun yoki boshqa normativ hujjatning** Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarori uchun Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli ekanligi, Polsha Konstitutsiyaviy Tribunal sudining 47-moddasi 2-qismida Konstitutsiyaviy shikoyat Tribunal tomonidan qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi, shuningdek **boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning** Konstitutsiya yoki qonunlarga muvofiqligi to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish qoidalar va tartibi asosida ko‘rib chiqilishi belgilangan¹¹.

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- Konstitutsiyaviy sudlarning mustaqilligini ta’minlash.
- Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish.
- Fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish.
- Konstitutsiyaviy sudga murojaat mexanizmlarini soddalashtirish.

“Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining 27-moddasiga fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish predmetini barcha normativ-huquqiy hujjatlar deb kengaytirish.

Xulosa

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u fuqarolar va yuridik shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali vositasidir. Ushbu institutning rivojlanishi demokratiya va qonun ustuvorligi g‘oyalarning tarqalishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Takliflarning qabul qilinishi natijasida fuqaro va yuridik shaxslarga konstitutsiyaviy sudga nafaqat qonun, balki boshqa normativ xususiyatdagi qonunosti hujjatlari ustidan ham shikoyat qilish imkoniyati vujudga keladi va bu ularning huquqlarini konstitutsiyaviy sud tartibida himoya qilinishini kafolatlarini oshiradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55- modda. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son), <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. <https://lex.uz/acts/->

¹⁰ (Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonuni Federal qonun gazetasi III qismi, tasnif raqami 100-1 da nashr etilgan qayta ko‘rib chiqilgan tahrirda, 2025 yil 22 martdagi Qonun bilan oxirgi tahrirda Federal qonun gazetasi 2025 I, № 94)

¹¹ Polsha Konstitutsiyaviy Tribunal sudining 47-moddasi

[5391934?ONDATE=28.04.2021%2000#-5400101](#)

3. Kelzen, G. (1928). "Avstriya Konstitutsiyasi"
4. Shmitt, K. (1931). "Konstitutsiyaviy huquq ta'limoti"
5. Авакьян, С. А. (2005). Конституционное право России. Москва: Норма.
6. Aleksey, R. (2002) "Huquq nazariyasi".
7. Ulman, D. (1998) "Konstitutsiyaviy huquq asoslari".
8. Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonuni Federal qonun gazetasining III qismi, tasnif raqami 100-1 da nashr etilgan qayta ko'rib chiqilgan tahrirda, 2025 yil 22 martdagi Qonun bilan oxirgi tahrirda Federal qonun gazetasi 2025 I, № 94)
9. Polsha Konstitutsiyaviy Tribunal sudining 47-moddasi
10. Ispaniya Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonun